

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya va yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarning amalga oshirilishi

Abbos Shavkat-o'g'li Tohirov

Ilmiy rahbar: Inomjon Ravshanbek-o'g'li Sirojiddinov

Namangan davlat pedagogika insituti

Annotatsiya: Ta'lim-tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi, deydi donishmandlar. Ta'lim-tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Barchamizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, joylarda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga, shuningdek ularni yuksak ma'naviyatli, zukko, bilimdon, yurt taqdirini o'z zimmasiga olishga qodir avlod sifatida voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar muxayyo qilinmoqda.

Kalit so'zlar: yoshlar, ta'lim-tarbiya, ko'nikma, davlat, ijtimoiy tuzum, pedagog, strategiya, ijtimoiy-iqtisodiy, texnologiya, tadbirkorlik, zukko, bilimdon, faoliyat, malaka, bilimdon

Implementation of educational and youth opportunities today

Abbos Shavkat-oglu Tohirov

Scientific supervisor: Inomjon Ravshanbek-oglu Sirojiddinov

Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: The more perfect education, the happier the people live, says the sages. In order for education to be perfect, it is absolutely impossible to allow a gap to arise in this matter. It is clear to all of us that at the present time, fiercely competitive, contradictory and contradictory situations are becoming more and more acute on a global scale. The issue of youth rises to the level of public policy, the necessary conditions are being observed in order to increase the socio-economic activity of young people in places, to involve them widely in entrepreneurial activities, to realize promising ideas and projects of young entrepreneurs, as well as to bring them to adulthood as a generation capable of high morale, ingenuity,

Keywords: youth, education, skills, state, social system, educator, strategy, socio-economic, technology, entrepreneurship, ingenious, knowledgeable, activity, qualification, knowledgeable

Bugungi ta'lim tizimi jadal suratlar bilan rivojlanayotgan ijtimoiy jamiyatimizda ta'lim tarbiya jarayonlarida asosiy obyekt va subyekt sifatida faol ishtirok etuvchi yoshlar ongida ma'naviy ilmiy tarbiyaviy ma'lumotlarni shakillantirish va ulardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini takomillashtirish pedagoglardan talab qilayotgan muhim vazifalardan biridir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Sizlar ko'p kitob o'qigan, bilimli avlod sifatida yurtimiz o'tmishda jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini yaxshi bilasiz. Siz Xorazmiylar, Farg'oniyalar, Beruniy va Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy va Boburlar, Buxoriylar, Termiziylar avlodisiz. Ana shunday buyuk vatandoshlarimiz yaratgan bebaho bilim va kashfiyotlar bugun ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda." Degan fikrlarida ham bugungi kun yoshlariga bildirilgan ushonchdir. Biz esa bu ishonchni oqlash uchun doimo izlanishda harakatda bo'lishimiz bildirilgan ishoncha va yaratilgan imkoniyatlardan to'la qonli foydalana olishimiz lozim.

Hammamizga ma'lumki, yurtimizda dunyoni lol qoldirgan ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Bularga Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Imom al-Buxoriylardek buyuk shaxslarni misol qilib keltirishimiz o'rinlidir. Imom al-Buxoriy "Al-Jome as-sahih" asarining muallifi ham butun dunyo olimlarini lol qoldirdi. Bu asarda hadislar 600 ming hadisdan saralab olingan 7397 ta sahihni o'z ichiga oladi. Ularda targ'ib etilgan mavzular bugungi kungacha ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Hadislar insonlarni to'g'ri yo'lga boshlashda, ta'lim-tarbiyaga da'vat qiluvchi bir namuna sifatida xizmat qilmoqda. Mana shunday, Imom al-Buxoriy kabi buyuk insonlar avlodi ekanligimiz va yuqorida nomlari keltirilgan buyuk bobolarimizning qoldirgan ulkan merosi va qilgan sa'y-harakatlari hozirgi kungacha o'z samarasini bermoqda.

Aytishimiz mumkinki, bugungi kunda yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ta'lim - tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan amaliy faoliyatlari va davlat dasturlari rejalari ijobiy tarzda amalga oshirilib kelinmoqda. Prezidentimiz farmoni bilan 2017-2021- yillarda yurtimizni rivojlantirishga qaratilgan beshta ustuvor yo'nalish - "Harakatlar strategiyasi"ni ham o'z isbotini topdi. Strategiyani amalga oshirish uchun shaxsan Prezidentimizning o'zi boshchilikka amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda 2017-2020- yillarda 328 ta maktab barpo qilindi va 11 yillik ta'lim tiklandi. Biz yoshlarga keng imkoniyat ochib beradigan Prezident maktablarining ochilishi barchamizni quvontiradi. Maktabgacha ta'lim tizimida ham bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. 2016- yilda maktabgacha ta'limda tarbiyalanayotgan bolalar soni 5,2 ming edi, 2020- yilga kelib bu ko'rsatlich 18 mingdan ziyodni tashkil

etmoqda. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan Maktabgacha talim muassasalari soni 5 mingdan 6,2 minggacha ko'tarildi.

Kam ta'minlangan oilalar farzandlariga ko'plab imkoniyat va sharoitlar yaratildi. 2016- yilda maktabgacha ta'limning qamrab olinishi 27,7% bo'lgan bo'lsa, 2020- yilga kelib 61% ga yetdi. Bunday ko'rsatkichlar, albatta, bugungi yoshlar va jamiyatning faol a'zolarini quvontiradi va faxr tuyg'usini uyg'otadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning dastlabki bosqichlarida tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev deyarli barcha islohotlarning bardavomligini yoshlarni qo'llab-quvvatlash siyosatida ko'rayotganining yaqqol tasdig'i sifatida boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim islohotidir. Bu islohotlarning yutug'i esa, bu sohadagi korrupsiyaga qarshi kurashni, hamda yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini ortirmoqda.

Xorijiy ta'lim muassasalaridan o'zimizdagi oliy ta'lim o'quv yurtlariga o'qishini ko'chirish, test jarayonlari, bir vaqtning o'zida 5 ta Oliy ta'lim muassasalarida bilimni sinab ko'rish masalalari buning yorqin misolidir. Bugungi kunda kadrlar huquqiy madaniyatini oshirish yo'lida ko'p yillik mehnat stajiga ega bo'lib, rahbar tizimlarida ishlab yurgan yoshlar imtiyozli magistratura bosqichida o'qishga tavsiya etish borasidagi hukumat qarorlari ham diqqatga sazovordir. Kuni-kecha davlatimiz rahbarining yoshlar bilan uchrashuvida ham yana yangi imkoniyatlar tilga olindiki, bu Yangi O'zbekitondagi yoshlarimizning dunyoqarashini ham tubdan o'zgaritirishga asos bo'ldi. Jumladan, ulardan biri keyingi yildan oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yosh uchun Prezident granti joriy etiladi. Shuningdek, ikki va undan ortiq farzandi oliy o'quv yurtida shartnoma asosida o'qiyotgan oilalarga imtiyozli ta'lim krediti berish yo'lga qo'yiladi. Yoshlarimizning nufuzli xorijiy oliy o'quv yurtlarida tahsil olishi uchun ko'maklashishga alohida e'tibor qaratamiz.

Keyingi yillardagi ta'lim va tarbiya sohasidagi strategik harakatlar yanada mukammal rejalashtirilgan. Ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'qituvchilar malakasi va o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy pedagogik va IT texnologiyalaridan foydalangan holda dars o'tish orqali o'quvchi va talabalarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim olish uchun sharoitlar yaratish, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun kasbiy ta'limni isloh qilish kabi ko'plab ishlar reja qilindi va amalga oshirilmoqda. Bu strategiya ta'lim tizimini sifatini yaxshilash, biz yoshlarning jahon standartlaridagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishimiz nazarda tutilib maqsad qilingan.

Prezidentimizning bunday harakatlari bizlarga yanada kuch va iroda baxsh etadi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda, biz - O'zbekiston yoshlari yurtimizning ravnaqi uchun, yuksak marralarni zabt etish uchun astoydil harakat qilib o'qishimiz, izlanishimiz, turli xil ixtirolar qilishimiz talab qilinadi. Berilayotgan

imkoniyatlardan, albatta, oqilona foydalana bilishimiz lozim. Vatan ravnaqi yo'lida jon kuydirish har bir inson uchun sharaf va burchdir! Farzandlarimiz maktabda qanchalik bilimli bo'lib chiqsa yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarimiz shunchalik tez rivojlanadi ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yechish imkonini paydo boladi. Shunday ekan yangi O'zbekistonimiz ostonasi maktabdan boshlanadi desam o'ylaymanki butun xalqimiz bu fikrini albatta qo'llab quvvatlaydi

Rivojlanish ostonasida turgan O'zbekistonimiz yoshlari birinchi navbatda o'z bilim konikma malakalarini salohiyatlarini oshirishlari uchun kitob mutolaa qilishlari va bobolarimiz merosini yanada chuqurroq o'rganib ta'lim sohasida berilayotgan imkoniyatlardan to'g'ri va oqilona foydalanishimiz darkor.

Ta'lim-tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi, deydi donishmandlar. Ta'lim-tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Barchamizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, joylarda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga, shuningdek ularni yuksak ma'naviyatli, zukko, bilimdon, yurt taqdirini o'z zimmasiga olishga qodir avlod sifatida voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar muxayyo qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullajonova M. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining o'zlashtira olmaslik sabablari G'G' Xalq ta'limi, 2002.- № 6.- B. 51-53.
2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari.- Toshkent: Fan, 1997.-182-b.
3. Boltayeva Sh. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. // Xalq ta'limi, 2004, № 3.-34-34 betlar.
4. Давлетшин М.Г, М. Мавлонов, С. Туйчиева «Ёш даврлари ва педагогик психология» Тошкент-2004 й.
5. Sarsengali, B., & Shagyrbai, A. (2022). Діни философиядағы мейірбан және кемел адам түсінігі. Вестник КазНУ, Серия Религиоведение, 32(4), 50-59.
6. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4(5), 988-992.
7. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.
8. Azimaxon Odiljon Qizi Kamolova (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4 (5), 988-992.
9. Azimaxon Odiljon Qizi Kamolova, & Surayyo Isroilovna Husaynova (2023).

O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4 (2), 969-972.

10. Камалова, А. (2021). THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION. *Экономика и социум*, (3-2), 12-14.

11. Madinaxon Xurshid Qizi Jo'Rakabirova, & Azima Odiljon Qizi Kamalova (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. *Science and Education*, 5 (3), 490-494.

12. Kamolova, A. (2022). The Scientific and Theoretical Foundations of Studying the Sources of Popular Pedagogy in Educating the Younger Generation. *Science and Education" Scientific Journal/Impact Factor*, 3, 590-592.

13. Kamolova, A. (2022). The Scientific and Theoretical Foundations of Studying the Sources of Popular Pedagogy in Educating the Younger Generation. *Science and Education" Scientific Journal/Impact Factor*, 3, 590-592

14. Jamshidbek Javlonbek O'G'Li Karimov, & Azima Kamalova (2024). Yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. *Science and Education*, 5 (2), 513-519.